

diniy, madaniy va hakozi) aloqalar mavjud. Olamning lisoniy manzarasini tahlil etish millat madaniyatlari bir-biridan nima bilan farq etishini, dunyo madaniyati darajasida ular bir-birini qanday to'ldirishini anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Арутюнова Н.Д. Национальное сознание, язык, смысл. Лингвистика на исходе XX века: итоги и перспективы. М., 1995. Т. 1
2. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании языка как иностранного. М., 1990
3. Добровольский Д.О. Национально-культурная специфика во фразеологии. Вопросы языкознания-1997 № 6
4. Zamonaviy va chog'ishtirma tilshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik masalalari. Xalqaro ilmiy - amaliy anjuman materiallari. Urganch, 2023 yil.
5. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika asoslari. Toshkent, 2020.

LINGVOKULTUREMALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TURLARI

Zebuniso RAMAZONOVA

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili 2-fakulteti katta o'qituvchisi

Lingvomadaniyatshunoslik fanining asosiy tushunchalaridan biri bu – lingvokulturemadir. Fanda til va madaniyatning uzviy bog'liqligiga asoslangan til birliklariga nisbatan "lingvokulturema" atamasi ishlatiladi. Bu atama asosida E. Sepir va B. Uorfning til va uning ma'noviy birliklar tizimi u yoki bu xalqning dunyoqarashi, tashqi dunyoni qay shaklda ko'rishi va anglashi o'zaro chambarchas bog'liqligi va mos kelishi nazariyasi yotadi. Bu g'oyani rivojlantirishga katta hissa qo'shgan tilshunoslardan biri V.V. Vorobyev ushbu "lingvokulturema" atamasini til va madaniyat bilan bog'liq munosabatlarni tadqiq etish imkonini beruvchi lingvomadaniy birlik sifatida fanga kiritgan. Uning fikricha, lingvokulturema - bu til birligining shakl, ma'no va madaniy ahamiyatni o'z ichiga olgan uyg'un bir jamlanmasidir (Vorobyev, 2008). So'zdan farqli ravishda lingvokulturema o'z tarkibiga nafaqat til (lisoniy ahamiyat kasb etadigan), balki

madaniyat (tildan tashqari madaniy ma'nolar) segmentlarini ham oladi. Lingvokulturema murakkab, darajalararo birlik sifatida lingvistik va ekstralingvistik (konseptual yoki predmet) mazmunning dialektik birligini ifodalaydi. Bu soʻzdan koʻra “chuqurroq” maʼnoga ega boʻlgan birlikdir:

soʻz: belgi - maʼno

lingvokulturema: belgi - maʼno - tushuncha/mavzu.

Koʻrib turganingizdek, lingvokulturemaning tuzilishi lingvistik birliklarga nisbatan murakkabroq. Odatiy tarkibga tushunish, anglash qoʻshiladi. Lingvomadaniy maʼnoni chuqur anglash nafaqat “til yorligʻini” bilish, balki mazmun-mohiyatni toʻliq tushunish, qoʻshimcha kognitiv dekodlash va obyekt bilan real (haqiqiy) “muloqot”ni shakllantiruvchi bilimlarni talab qiladi. Lingvomadaniy tushunchalar mazmunini anglash darajasi (masalan, maʼlum bir tilda soʻzlashuvchilar va boshqa til va madaniyat vakillari oʻrtasidagi muloqotda) koʻp jihatdan maʼlum bir madaniy sohaga doir bilimlarning oʻxshashligi, lingvomadaniy kompetensiyalarning mos kelish darajasiga bogʻliq.

V.V. Vorobyevning fikricha, lingvokulturemalar: 1) konnotativ maʼnoga ega va belgi-funksiyaga aylangan; 2) bir nechta konnotativ maʼnolarda ifoda etilishi mumkin; 3) qabul qiluvchi (oʻquvchi yoki tinglovchi)ning ongida faollashishi yoki faollashmasligi mumkin; 4) ular paydo boʻlgan gʻoyaviy kontekst mavjud ekan, faol “yashashda davom etadi” (Vorobyev, 2006:52).

Lingvokulturemaning tuzilishi boshqa til birliklariga qaraganda ancha murakkab: u oʻzida ham lisoniy taassurot, ham tildan tashqari muhitni (situatsiya, realiya) namoyon etadi. Shunday qilib, tilni yaxshi biladigan kishida har qanday soʻzga madaniy oreol hamrohlik qiladi, busiz matnni toʻgʻri interpretatsiya qilish mushkul va baʼzi hollarda umuman ilojisiz. Til birliklarini madaniylashtirish jarayoni u yoki bu millat doirasida madaniy assotsiatsiyalar tarmoqlari majmuasi yaratilishiga olib keladi. Oʻ.Q. Yusupov lingvokulturemani quyidagicha talqin etishni tavsiya etadi: “Lingvokulturema oʻz semantikasida madaniyatning biror boʻlagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligidir. Ular soʻz (tub, yasama, qoʻshma va murakkab soʻzlar), soʻz birikmalari, iboralar, gap,

paremiya, murakkab sintaktik butunlik, matn va hokazolar bo‘lishi mumkin” (Yusupov, 2010).

Bugungi kunda tadqiqotchilar lingvokulturemaning quyidagi xususiyatlarini aniqladilar:

- 1) Lingvokulturema atash ma’nosini ifodalaydi;
- 2) Lingvokulturemalar tuzilishi jihatidan xilma-xil: so‘zdan tortib butun matn shaklida ham bo‘lishi mumkin;
- 3) Lingvokulturemalar o‘z manbai, kelib chiqish xususiyatlariga ko‘ra o‘xshash va farqli jihatlarga ega (Vorobyev, 2008).

Biroq lingvokulturemaning strukturaviy va semantik tuzilmasiga boshqa yondashuvlar ham mavjud. Masalan, V.V. Krasnix lingvokulturemaning bir turini ijtimoiy pretsedentlik va universal pretsedentlik xususiyatlarini hisobga olib, milliy pretsedent hodisalar deb ataydi (V.V. Krasnix, 2002, 50-51). Slishkin esa pretsedent hodisalarni aql-idrok bilan bog‘liq hodisa ekanligi, madaniyatni aks ettirishi va tilda mujassamlanganligini inobatga olib, ularni konseptning bir turi deb hisoblaydi. Agar lingvokulturema konseptning bir qismi ekanligini hisobga olsak, ular orasida gradatsion zanjir hosil qilishimiz mumkin: pretsedentlik hodisasi- lingvokulturema- konsept. Bu tushunchalar o‘zaro bog‘liq va ma’no jihatidan yaqin bo‘lsada, bir qator o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Masalan, konsept kognitiv lingvistika birligi bo‘lib, ijtimoiy ongga asoslanadi, lingvistik ma’noni so‘z orqali ifoda etadi va konseptosfera yaratishga xizmat qiladi. Lingvokulturema esa lingvokulturologiya fanining asosiy birligi bo‘lib, lingvokulturologik maydonni ta’riflaydigan, lingvistik va ekstralingvistik ma’nolarga ega, konseptdan farqli o‘laroq, nafaqat so‘z, balki so‘z birikmasi, gap, abzas, hatto butun matn orqali ifodalanadigan murakkab, ko‘p qatlamli til birligidir (A. J. Baxralina, 2013).

Atamaning tilshunoslikka kirib kelishi lingvomadaniyatshunoslikning dunyo miqyosida rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Bir necha xorijiy olimlar o‘z asarlarida rus olimlari tomonidan kiritilgan ushbu atamani turli shakllarda (“cultureme linguistique”, “cultureme langagier”, to‘g‘ridan to‘g‘ri shaklda “linguaculturema”) ishlata boshladilar.

Til materiallari bilan ishlash jarayonida madaniyatning ahamiyati tobora ortib borishi natijasida dunyo miqyosida turli olimlar L. Venuti (Venuti/ 2017), J. Delayla (Delisle, 1993), N. Kuchuk (Cuciuc, 2011), L. Molina (Molina, 2001), A. Xurtado (Hurtado, 2011), H. Sherifi (Cherifi, 2009) o‘z asarlarida lingvokulturologik tadqiqotlarni rivojlantirdilar.

Lingvokulturemalar tadqiqida ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash, o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvokulturema manbalari bo‘lib, tarkibiga u yoki bu millat uchun ahamiyatli bo‘lgan ma’lumotlar, doimiy ravishda xilma-xil shaklda yig‘ilib to‘planib boriladigan madaniy-tarixiy hodisalar hisoblanadi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) Xalq og‘zaki ijodi (folklor, paremiologiya) milliy madaniyat tarkibiy qismi sifatida;
- 2) Tarixiy obidalar va umummilliy qarashlar, shuningdek, maxsus tarixiy, falsafiy, madaniy, adabiy, tilshunoslik va san’atga doir tadqiqotlar;
- 3) Milliy dominant qadriyatlar aks ettirilgan ilm-fan, madaniyat, san’at va adabiyot namoyondalarining fikrlari, so‘zlari;
- 4) Xalqning milliy o‘ziga xosligini namoyon etuvchi badiiy asarlar;
- 5) Publitsistika (jurnalistika);
- 6) Millatning ustuvor qadriyatlarini tarannum etuvchi, milliy o‘zlik modeli sifatida qaraladigan buyuk shaxslar;
- 7) Chet ellik olimlar, sayohatchilar va boshqa tashrif buyuruvchilarning qiyosiy tahlilga asoslangan millat va uning madaniyati haqidagi fikrlari (Temirgazina Z.K., 2015:26)

V.V. Vorobyevning ilg‘or g‘oyalari keng tarqalishiga qaramasdan V.A. Maslova kiritilgan atamani noaniq deb topdi, uning fikricha atama lingvistik birlik va madaniy ma’lumot qachon va qay shaklda o‘zaro birikishi, bog‘lanishi mexanizmlarini ochib bermaydi. (Maslova 2001, 51) V.A. Maslovaning nuqtai nazariga ko‘ra, asosida mifologema yoki arxetip yotadigan mifologik til birliklar, shuningdek madaniyatning majoziy va marosim shakllari, maqol, matal va frazeologik qatlamlarda qat’iy o‘rin

egallaydigan afsona va asotirlar, timsollar, aqida va ko'nikmalar Lingvomadaniyatshunoslik fani predmeti hisoblanadi. (Maslova, 1997, b.13). Bu kabi madaniy ma'noga ega birliklarni o'rganishda ularning badiiy matnga kiritilishi muhim ahamiyatga ega.

Lingvokulturemalarni tasniflashda rus tilshunosi V.A. Maslovaning hissasi beqiyos. U lingvokulturemalarni 9 xil turga ajratadi: 1) tilning ekvivalentsiz lug'at qatlami – realiyalar (milliy liboslar, taomlar, marosim va bayramlar, an'analar, ayrim buyum nomlarini o'z ichiga oladi) va lakunalar; 2) mifologemalar – arxetiplar, afsonaviy qahramonlar, obrazlar, marosim va udumlar, rituallar; 3) tilning paremiologik fondi (maqollar va hikmatli so'zlarni o'z ichiga oladi); 4) tilning frazeologik fondi; 5) etalonlar, stereotiplar, simvollar; 6) metafora va obrazlar (timsollar); 7) turli tillarning stilistik qatlamlari (adabiy/noadabiy shakllar va hk.); 8) nutqiy axloq va fe'l-atvor; 9) nutq etiketi (Maslova, 2001).

Badiiy matnda lingvokulturema bir qancha vazifalarni bajaradi:

- Shakllantiruvchi - matnni rasmiy va mazmunli shakllantirish, uning yaxlitligi, tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorligi, tugallanganligi;
- Bog'lovchi - matnlar orasida bog'lanish hosil qilish, bir matnda boshqa matnga ishora qilish orqali o'zaro muloqot- dialoglilikni ta'minlash;
- Jamlovchi - ma'lumotlarni saqlash, yuborish, lingvomadaniy qadriyatlar, ko'nikma va malakalarni jamlash va aks ettirish;
- Obrazli, ramziy fikrlashni talab qiladigan estetik qobiliyat, ma'noni tushunish, lingvokulturemaning mohiyatini idrok qilish, uning metaforik hususiyatini anglashdan estetik zavq olish;
- Yashirin (parolli), o'quvchidan muallifga xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy guruhga oid madaniy ma'lumotlarni "o'z" va "begona" turlarga ajratish, yashirin ma'lumotlarni (kodlarni tushunish);
- Pragmatik, muallifning xohish-istaklari va maqsadlarini ochib berilishi va o'quvchi tomonidan xolis baholanishi, qabul qilinishi, perlokatsion ta'sirning izchilligi;
- Lingvokulturemani moslashtirishda o'yin ta'siri o'yin ta'siri;

- Baholash, lingvokulturema orqali muallifning voqea-hodisa, belgi va timsol (obraz)larni baholash imkoniyati bilan bog‘liq;
- Hissiy-ifodaviy, o‘quvchilarning his-tuyg‘ulariga murojaat qilish. (F.I. Gorushkina, 2019).

Xulosa qilib aytganda, lingvokulturemalar lingvomadaniyatshunoslikning asosiy birligi bo‘lib, murakkab, fanlararo xususiyatlarni namoyon etadi, tarkibida nafaqat lisoniy, balki madaniy axborot saqlashi va tilda turli xil birliklar orqali ifodalanishi mumkin. Lingvokulturemaning tuzilishi boshqa til birliklariga qaraganda ancha murakkab: u o‘zida ham lisoniy taassurot, ham tildan tashqari muhitni (situatsiya, realiya) namoyon etadi. Shunday qilib, tilni yaxshi biladigan kishida har qanday so‘zga madaniy oreol hamrohlik qiladi, busiz matnni to‘g‘ri interpretatsiya qilish mushkul va ba’zi hollarda umuman ilojsizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Воробьев В. В. Лингвокультурология. - Москва: Российский ун-т дружбы народов, 2008. - 336 с.: ил., табл.; 22 см.; ISBN 978-5-209-02717-1
2. Горюшкина А. В. Лингвокультуремы в структуре современного поэтического дискурса сетевого автора Али Кудряшевой: функциональный аспект изучения: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.01. - Череповец, 2019.
3. Красных В.В. Система прецедентных феноменов в контексте современных исследований // Язык, сознание, коммуникация. Вып.2 — М.: Филология, 1997. – С. 7-16.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. - М.: Издательский центр Академия, 2001. - 208 с.
5. Темиргазина З.К. Лингвистическая аксиология: оценочные высказывания в русском языке. 2-е изд. - 2-е изд., стер. - Москва: Флинта, 2015. - 247 с.; ISBN 978-5-9765-2118-6